

## IQTISODIYOT

Jo‘raxonov Muzaffar Eskandarovich

Andijon mashinasozlik instituti, i.f.f.d. (PhD), dotsent

[m.juraxonov@andmiedu.uz](mailto:m.juraxonov@andmiedu.uz)

### KICHIK BIZNES SUB'EKLARINI BARQAROR RIVOJLANISHIGA INFRATUZILMANING TA'SIRI TAHLILI

### АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ НА УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА

### ANALYSIS OF THE IMPACT OF INFRASTRUCTURE ON THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESSES

**Annotatsiya.** Maqolada kichik biznes sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularni rivojlantirishda infratuzilmaning o'rni o'rganilgan. Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlarining soni, ularning faoliyat yo'nalishlari taxlil qilingan. SHu bilan birga Andijon viloyatida kichik biznesni rivojlantirishga, uning faoliyatini kengaytirishga infratuzilmani ta'sirini baholashga alohida e'tibor qaratilib, bunda infratuzilmani kichik biznesning barqarorlik darajalariga ta'siri baholangan.

**Kalit so'zlar:** Infratuzilma, biznes infratuzilmasi, kichik biznes, biznesni qo'llab-quvvatlash, kredit tizimi, bank, soliq tizimi, bojxona tizimi, birja, auktsion, yarmarka, reklama agentliklari, sug'urta, konsalting, audit, eksport, daromad.

**Аннотация.** В статье рассматривается роль инфраструктуры в поддержке и развитии деятельности субъектов малого бизнеса. Проанализировано количество и направление деятельности действующих в Андиканской области объектов инфраструктуры. При этом особое внимание было уделено оценке влияния инфраструктуры на расширение малого бизнеса в Андиканской области и развитию их деятельности, а также оценено влияние инфраструктуры на устойчивость малого бизнеса. .

**Ключевые слова:** Инфраструктура, инфраструктура бизнеса, малый бизнес, поддержка бизнеса, кредитная система, банковское дело, налоговая система, таможенная система, биржа, аукцион, ярмарка, рекламные агентства, страхование, консалтинг, аудит, экспорт, доход.

**Abstract.** The article examines the role of infrastructure in supporting and developing the activities of small businesses. The number and direction of activity of infrastructure facilities operating in the Andijan region are analyzed. At the same time, special attention was paid to assessing the impact of infrastructure on the expansion of small businesses in the Andijan region and the development of their activities, and also assessed the impact of infrastructure on the sustainability of small businesses.

**Key words:** Infrastructure, business infrastructure, small business, business support, credit system, banking, tax system, customs system, exchange, auction, fair, advertising agencies, insurance, consulting, audit, export, income.

Iqtisodiy barqarorlik resurslardan foydalanish darajasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu jarayon kichik va o'rta biznes orqali ta'minlanadi. SHu bois, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida yaratilgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) hamda ish bilan bandlikning asosiy qismi kichik va o'rta biznes hissasiga to'g'ri keladi. Dunyo mamlakatlarida kichik va o'rta biznes resurslardan oqilona foydalanish va aholi daromadlarining o'sishi hamda turmush darajasi sifatini ta'minlash borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini yanada yuqori bosqichga olib chiqishda kichik biznes sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish borasida amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, bir qator dasturiy yo'naliishlar kichik biznesning rivojlanishiga olib kelmoqda. Biznes yuritish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, chet el investitsiyalarini faol jalb etish va investorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda kichik biznesning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi ortib bormoqda, u iqtisodiyotdagi yetakchi kuchga aylanib, bozorlarimizni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, aholi daromadi va farovonligini oshirishning asosiy manbai, ish bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolarni hal etishning muhim omiliga aylanayotgani alohida ahamiyat kasb etadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra hozirgi paytda O'zbekistonda 429,1 ming kichik biznes sub'ekti faoliyat yuritmoqda. Ularning hissasiga mamlakat yalpi ichki mahsulotning 51,2 foizi to'g'ri keladi, mehnatga layoqatli aholining 74,1 foizini ish bilan ta'minlamoqda [12].

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da kichik biznes faoliyatini yanada rivojlantirishga keng e'tibor qaratilgan bo'lib, unga ko'ra "**Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagи ulushini 60 foizga yetkazish.** Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish. SHaroiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish" belgilangan [1].

Xozirgi iqtisodiyotni yanada rivojlantirish sharoitida kichik biznes faoliyatini takomillashtirishda davlatning tartibga solish va qo'llab-quvvatlashi strategik siyosatining dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Bu borada Prezident SH.Mirziyoev o'z nutqida "...Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlamasak, sharoit yaratmasak, ko'paytirmasak mahalliy byudjet, ishchi o'rinnari, YAIM va barqaror o'sish bo'lmaydi" deb aytib o'tgan [2].

So'ngi yillarda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan davlatning tartibga solish va qo'llab-quvvatlash choralar natijasida sohaning yanada rivojlanishiga erishildi. O'z navbatida YAIM hajmini 2030 yilga borib 2 barobarga ko'paytirish maqsadini amalga oshirishda ham kichik biznes imkoniyatlaridan foydalanish markaziy o'ringa chiqdi. SHunisi diqqatga sazovorki, oxirgi uch yilda soliqlar turi 16 tadan 9 taga qisqartilildi va 5 yil ichida mamlakatimizda yosh tadbirkorlar soni 5 barobar ko'payib, ularning soni 500 mingdan oshdi [2].

Tadbirkorlik sub'ektlariga berilayotgan imtiyoz va qulayliklarga qaramasdan, sohada yechilishi zarur bo'lgan muammolar ko'p. Bugungi kunga qadar sohaga doir eng dolzarb muammolarni tizimlashtirib, ularni hal etishga qaratilgan 7 ta muhim yo'naliш bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Bu yo'naliшlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Biznesni moliyalashtirish va moliya kredit masalalari;
- soliq tizimini takomillashtirish,
- biznesga soliq yukini imkon qadar kamaytirish;
- tadbirkorlarga yer ajratish;
- biznes uchun zarur bo'lgan infratuzilma muammolari;
- eksportiyor korxonalarni qo'llab-quvvatlash, kichik biznesni eksport faoliyatiga keng jalb etish;
- hududlararo savdo va kooperatsiya aloqalarini bog'lashda transport-logistika masalalari;
- tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvlarni qisqartirish, sohadagi tartib-tamoillarni soddallashtirish, xususiy mulk daxlsizligi kabilar.

Ma'lumki, kichik biznes sub'ektlarining rivojlanishi va samarali faoliyat yuritishi ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liq. YUqoridagi muhim yo'naliшlardan ko'rinish turibdiki kichik biznes rivojiga qulay imkoniyatlar yaratadigan shart-sharoitlar orasida infratuzilma xizmatining o'rni va ahamiyati o'ziga xosdir.

Kichik biznes rivoji uchun o'zaro hamkorlikka asoslangan boshqa tegishli tarmoqlar va tashkilotlar bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, kichik biznesga xizmat ko'rsatadigan rivojlangan biznes infratuzilmasi bo'lishi kerak. Infratuzilma – bu biznes munosabatlarning harakatini belgilovchi va bu biznes munosabatlarni xilma xilligini ta'minlaydigan tashkiliy-huquqiy shakllar yig'indisidir [3].

Infratuzilma bozor iqtisodiyotining zarur elementi sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun bozor raqobat muhitini yaratib, yalpi ichki mahsulot tarkibiga va mamlakat mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [10].

Kichik biznesning barqaror rivojlanishida sohani ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, davlat tomonidan boshqarish va qo'llab-quvvatlash, hududiy xususiyatlar kabi omillar qatorida infratuzilma faoliyatining darajasi muhim o'rinn tutadi. Bu borada bir qator olimlar va mutaxassislar o'z tadqiqotlarini olib borganlar.

E.A. Lyanova, K.V. Kolpakova va ye.V.Gusarovalar fikriga ko'ra kichik biznesni barqaror rivojlantirishga hamda raqobatdoshligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida tabiiy resurs salohiyati, infratuzilma, ekologik, ijtimoiy-demografik, innovatsion, geografik omillar, mahalliy va davlat siyosati kabilalar keltirilgan [4].

T.S.Karpova kichik biznesga ta'sir qiluvchi omillarni ijobiy va salbiy omillarga xamda kelajak uchun ijobiy va salbiy imkoniyatlarga ajratib, ijobiy omillar qatorida "Biznesni qo'llab-quvvatlash uchun asosiy infratuzilmaning mavjudligi" xamda kelajak uchun ijobiy omillar qatorida "Mintaqaviy va mahalliy darajada kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun rivojlangan infratuzilmani shakllantirish" kabilarni keltirib o'tgan [5].

D.A.Xayrullina xam kichik biznesning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ikki guruhga, tashqi muhit va ichki muhit omillariga ajratgan bo'lib, tashqi muhit omillari

tarkibiga biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimlarini kiritgan [6].

D.R. Maxmudova fikricha “Biznes infratuzilmasi – bu korxonalar faoliyati uchun zarur bo'lgan biznes muhitining bir qismidir”. Biznes infratuzilmasi – bu biznes yuritishga vositachilik qiladigan va bu munosabatlarni yaxlit bog'laydigan tashkiliy-huquqiy shakllarning uyg'unligidir [3].

O'z navbatida biznes infratuzilmasi tarkibi turli elementlardan tashkil topgan bo'lib, ularning turlari, ko'rinishlari, tarkibi xar bir mamlakat iqtisodiyotidan kelib chiqib turlicha bo'lsada, ularning asosiy vazifasi kichik biznes sub'ektlari faoliyati uchun zarur bo'lgan xizmatlarni ko'rsatishdir. Biznes infratuzilmasi elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin: kredit tizimi va banklar, investitsion fondlar, soliq tizimi, bojxona tizimi, kadrlar tayेrlash tizimi, barcha turdag'i (ya'ni, tovar, xom ashè, mehnat, fond, valyuta) birjalar va nobirja (ya'ni auktsionlar, brokerlik firmalari, yarmarkalar, reklama agentliklari, tijorat-ko'rgazmali komplekslar, savdo palatalari) faoliyatidagi bozor sub'ektlari, yuridik xizmat, lizing, injiniring, sug'urta, konsalting va audit kompaniyalari, marketing markazlari, texnoparklar, biznes inkubatorlar, transport va aloqa tizimi, ombiznes faolligini rag'batlantiruvchi jamiyatlar va davlatga qarashli jamg'armalar, ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalariga asoslangan ishbilarmon kommunikatsiya vositalari, kasaba uyushmalari va boshqalar.

Xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni xar tomonlama qo'llab-quvvatlashning puxta ishlab chiqilgan tizimi mavjud bo'lib, bu tizim iqtisodiyotning globallashuvi, jahon moliyaviy-iqtisodiy muhitining barqaror taraqqiy etishini ta'minlaydi. Bu islohotlar natijasida, umumiy hisob-kitoblarga ko'ra rivojlangan davlatlarda tadbirkorlik sub'ektlari jami korxonalar sonining 90 foizdan ziyodini tashkil etib, mehnatga layoqatli aholining 50 foizdan ortig'ini ish bilan ta'minlamoqda. Bunday holat esa davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmning to'laqonli rivojlanganligini anglatadi [7].

Masalan, Yaponiya iqtisodiyotning muhim elementi bo'lgan kichik va o'rta biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tajribasini o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi. Yaponianing kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish infratuzilmasini butun hukumatining kichik va o'rta korxona global strategiyasini amalga oshiradigan “Kichik va o'rta korxonalar davlat agentligi” (SMEA) boshqaradi. Ushbu tuzilma bir qator yirik xususiy va jamoat tashkilotlari, tadqiqot markazlari bilan faol hamkorlik qiladi [8].

### 1-jadval

#### **Xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkilotlar**

Nº	Davlat nomi	KBXTni qo'llab- quvvatlovchi tashkilot nomi
	Yaponiya	“SMEA - Kichik va o'rta korxonalar davlat agentligi” va “Yaponiyada kichik biznesni rivojlantirish davlat korporatsiyasi”
	AQSH	“SBA - Kichik biznes ma'muriyati”

Germaniya	“DGRW - Kichik va o‘rta biznes bosh Direktorati” va “ZIM - Kichik biznes uchun markaziy innovatsiya dasturi”
Buyuk Britaniya	“SBS - Kichik biznes uchun xizmat ko‘rsatish”
Frantsiya	“MEDEF International -Frantsiya tadbirkorlari harakati”
Xitoy Xalq Respublikasida	“CSMEO - Kichik biznesni rivojlantirish boshqarmasi” va “Xitoy Biznes kooperatsiyasi va muvofiqlashtirish Markazi”
Janubiy Koreya	“ASMB - Kichik va o‘rta biznes administratsiyasi”
CHexiya	“Kichik biznesni moliyalash davlat korporatsiyasi”
Polsha	“PARP - Tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha agentlik” va “Kichik va o‘rta tadbirkorlik departamenti”
Vengriya	“Tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha Milliy kengash”
Singapur	“SPRING - Savdo va sanoat vazirligi huzurida tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi”
Qozog‘iston	“FRP AO - Tadbirkorlikni rivojlantirish fondi Aktsiyadorlik jamiyat”
Belarus	“FFPP - Tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash fondi”

Kichik biznes sub’ektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi bu kabi tashkilotlar ko‘plab xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan. Ushbu tashkilotlar muassasalar kichik biznes sub’ektlariga tijorat banklaridan kredit olishda vositachilik vazifasini, kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish, loyihaning barcha bosqichlarida tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish bilan shug‘ullanadi. Ularning ayrimlari 1-jadvalda keltirilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida infratuzilmalarni faol shakllantirish jarayoni jadal davom etmoqda. Bu jarayonning natijalari sifatida kichik tadbirkorlik sub’ektlariga xizmat ko‘rsatuvchi kichik ulgurji va chakana savdo tuzilmalari, brokerlik idoralari, injiniring, konsalting kompaniyalari, lizing, auditorlik firmalari, sug‘urta kompaniyalari, logistika korxonalari, axborot-maslahat markazlari, axborot-reklama byurolari va boshqa turli xil infratuzilmalar tizimi faoliyat ko‘rsatmoqda.

YUqoridagilar bilan bir qatorda respublikamiz hududlarida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qancha infratuzilma ob’ektlari samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning maqsadi – hududlarda kichik biznesni rivojlantirishga ko‘maklashish, unga davlat tomonidan salmoqli yordam ko‘rsatish bilan birga davlat, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, hokimiyat organlari, tadbirkorlik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtirish hisoblanadi.

Hozirgi davrda mamlakatda kichik biznes faoliyatining jadal rivojlanishiga unga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalarning tashkil etilishi va xizmat sifati yaxshilanib bormoqda. Mamlakatda bugungi kunda kichik biznes sohasiga yigirmadan ortiq turdagи xizmatlarni ko‘rasatuvchi o‘n mingdan ortiq infratuzilma muassasalari faoliyat ko‘rasatmoqda. Natijada,

kichik biznes sub'ektlarining mamlakatda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholi daromadlarini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari yuqori bo'lmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar kichik korxonalar va mikrofirmalarni sonining ortishi natijasida yangi ish o'rinlarini yaratishga hissa qo'shamoqda.

## 2-jadval

### Andijon viloyatida mavjud biznes infratuzilma ob'ektlar soni [12]

Nº	Infratuzilma muassasalari	2015 y	2016 y	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y
	<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>1695</b>	<b>1972</b>	<b>1885</b>	<b>2052</b>	<b>2253</b>	<b>2359</b>	<b>2440</b>	<b>2514</b>
1	Banklar	14	14	14	14	15	17	18	21
-	Bank filiallari	71	70	70	70	75	78	79	83
-	Mini banklar	63	71	71	66	78	81	88	91
2	Kredit tashkilotlari	21	5	7	9	11	12	15	16
3	Lizing xizmatlari	6	6	5	4	4	5	5	5
4	Sug'urta tashkilotlari	1	3	4	5	7	9	10	10
5	Birja xizmati	1	1	1	1	1	1	1	1
6	Audit xizmatlari	7	5	7	5	7	8	9	11
7	Konsalting markazi	1	1	1	1	1	1	1	1
8	Buxgalteriya xizmatlari		6	35	59	62	65	72	78
9	Logistika xizmati	148	381	321	330	357	370	385	397
10	Biznes maktab va biznes inkubator	1	1	1	1	1	1	1	1
11	YUridik maslaxat xizmatlari	87	100	98	103	111	118	121	126
12	Loyiha xizmati tashkilotlari	70	110	106	124	143	148	152	160
13	Brokerlik idoralari	215	64	55	52	50	54	56	59
14	Reklama xizmatlari	19	17	19	15	24	26	29	37
15	Boshqalar	970	1117	1070	1193	1306	1365	1398	1417

Andijon viloyatida kichik biznes faoliyatining rivojlanishida unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalarining tashkil etilishi va xizmat sifati darajasining yaxshilanib borishi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, bugungi kunda viloyatimizda kichik biznes sohasiga o'n beshdan ortiq turdag'i 2514 ta infratuzilma muassasalari xizmat ko'rsatib, sohaning rivojlanishi va samarali faoliyat yuritishi uchun turli ko'rinishdagi xizmatlar ko'rsatib, zarur shart-sharoitlar yaratmoqdalar. (2-jadval).

Ma'lumki, infratuzilmaning o'zgarishlari iqtisodiyotda qator miqdoriy va samaradorlik ko'rsatkichlarining o'zgarishiga olib kelmoqda. SHuni e'tiborga olib, infratuzilma ob'ektlarining o'zgarishini sohada mavjud kichik biznes sub'ektlari soni va ular tomonidan yaratilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini baholash usulini taklif etamiz.

$$IS_t^U = \frac{YIMU(YHMU)_t^i}{IS_t^i} - \frac{YIMU(YHMU)_{t-1}^i}{IS_{t-1}^i} \quad (1.1)$$

YOki

$$IS_t^H = \frac{SMH_t^i}{IS_t^i} - \frac{SMH_{t-1}^i}{IS_{t-1}^i} \quad (1.2)$$

Bunda:  $IS_t^U$  – i-sohada t-davrdagi nisbiy institutsional samaradorlik, koeffitsiyent;

$YIMU(YHMU)_{t-1}^i$  – hisob-kitob amalga oshirilgandan bir yil avvalgi (t-1) davrda i-sohaning yalpi ichki mahsulot (yalpi hududiy mahsulot)dagi ulushi, foiz;

$IS_t^i$  - t-davrda i-sohaga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma sub'ektlari soni, dona;

$IS_{t-1}^i$  - hisob-kitob amalga oshirilgandan bir yil avvalgi (t-1) davrda i-sohaga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma sub'ektlari soni, dona;

$IS_t^H$  - i-sohada t-davrdagi institutsional samaradorlik, koeffitsiyent;

$SMH_{t-1}^i$  - hisob-kitob amalga oshirilgandan bir yil avvalgi (t-1) davrda i-sohaning yaratgan mahsulot hajmi, so'm.

Kichik biznesning barqaror rivojlanishi unga ta'sir etuvchi ichki hamda tashqi omillarning miqdor va sifat o'zgarishlariga bog'liq. SHuningdek, kichik biznesning barqaror rivojlanish davomiyligi ko'p jihatdan omillarning samaradorligi bilan kuchli bog'liqlikni ifodalaydi [11].

Andijon viloyatida kichik biznesni rivojlantirishga, uning faoliyatini kengaytirishga infratuzilmani ta'sirini baholashga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Bunda infratuzilmani kichik biznesning barqarorlik darajalariga ta'sirini baholab o'tamiz.

Andijon viloyatida infratuzilmaning rivojlanishi natijasida investiiyalar hajmi ham o'sib bormoqda. Jumladan, mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiya siyosati asosida infratuzilma ob'ektlariga alohida e'tibor qaratish lozim. SHuningdek, mazkur sohani rivojlantirish chora-tadbirlarini qo'llash muhim hisoblanadi. Infratuzilma ob'ektlari soni va sifati investitsiya muhitini belgilovchi muhim omildir. SHuningdek, infratuzilma tizimi va uning sifatini rivojlantirish ishlab chiqarishga ijobjiy ta'sir etadi. Qator izlanishlarda

infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar hududlardagi iqtisodiy o'sish va mehnat unumdorligini bir-biriga yaqinlashtiruvchi asosiy omil ekanligi tadqiq qilingan[9].

Demak, infratuzilma ob'ektlari o'zgarishi kichik biznesni omillar hajmi o'zgarishiga ta'sir etishi bilan birga, faoliyati natijasiga ham to'g'ri bog'lanishni ko'rsatmoqda. SHu bois, infratuzilmalarning kichik biznes barqarorligini, rivojlanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarga ham ta'sirni aniqlaymiz.

Dastlab kichik biznesning YAHMDagi ulushi bilan infratuzilma ob'ektlari soni va turlari ta'sirining iqtisodiy-matematik usullar orqali bog'liqligini tadqiq etdik. Natijada, Andijon viloyatida kichik biznesning YAHMDagi ulushiga infratuzilmaning umumiy soni kuchli ta'sir qilmoqda.

SHunday bo'lsada, infratuzilmaning tarkibiy tuzilishini alohida ta'sirini baholashimiz lozim. Jumladan, kichik biznesga xizmat qiluvchi infratuzilma ob'ektlarining turlari soni 15 dan ortiq bo'lib, ularning qay biri yuqori ta'sirga egaligini aniqlash muhimdir. CHunki, kichik biznesning soni o'zgarishiga tijorat banklarining ta'siri yuqori bo'lsa, logistika xizmati eksport salohiyatini belgilovchi omillardan biridir. Ko'p hollarda, kichik biznesning uzoq muddat faoliyat ko'rsatishi, barqarorligi boshqaruvchi kadrlar malakasiga ham bog'liq. YA'ni, faoliyat uchun muhim bo'lgan bozorni to'g'ri tanlash va o'rganish lozim.

Kichik biznesning YAHMDagi ta'siriga infratuzilmaning tarkibiy elementlari ta'siri baholanganda loyiha xizmatining ta'siri yuqori ekanligini aniqladik (3-jadval). Jumladan, kichik biznesning YAHMDagi ulushi bilan kichik biznes sub'ektlari soni to'g'ri proporsiyada bog'langan. Bu esa, kichik biznesning tarmoqlar tarkibida ikki sohaning o'sishiga sabab bo'ladi. Xizmatlar sohasi loyihachilar faoliyati kengayishiga olib keladi. Bu o'z navbatida, loyihalash xizmati real sektor korxonalarini ham kengaytiradi. CHunki, biznesni loyihalash tadbirkorlik faoliyati barqarorligini ta'minlovchi asosiy mezon hisoblanadi.

### 3-jadval

#### **Andijon viloyatida kichik biznesning YAHMDagi ulushiga infratuzilma ob'ektlari ta'sirining ekonometrik bog'liqlik koeffitsiyentlari va tekshiruv (test) natijalari**

Ko'rsatkichlar		1-model	2-model
KBga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlarining umumiy soni	infra_umum	<b>0.695368 (0.0000)</b>	
KBga lyiha xizmati ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlari soni	infra_loyiha		<b>0.252752 (0.0000)</b>
Konstanta	S	<b>-1.009093</b>	<b>1.322889</b>
$R^2$ (R-squared)		0.870427	0.931046
To'g'rilangan $R^2$ (Adjusted R-squared)		0.856030	0.923385
F-statistika (F-statistic)		60.45887	121.5219

Ehtimollik qiymati (Prob(F-statistic))	0.000002	0.000002
Darbin-Uotson statistikasi (Durbin-Watsonstat)	1.657426	1.906038

Izoh: Muallif tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan (Excel va Eviews kompyuter dasturlari asosida tuzilgan).

SHuningdek, kichik biznesning barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan yana biri – ish bilan bandlikdagi kichik biznes ulushidir. Mazkur ko'rsatkichga ham infratuzilmaning umumiy soni va loyiha xizmati ko'rsatuvchi turining ijobiyligi ta'siri aniqlandi. YA'ni, umumiy infratuzilma ob'ektlari sonini bir birligida o'zgarishi kichik biznesni ish bilan band bo'lganlar ulushini 0,085 foizga o'zgartirmoqda. YA'ni banklar faoliyatini kengayishi kreditlar hajmiga to'g'ri ta'sir qilib, yangi ish o'rinni yaratishini ta'minlaydi. (4-jadval).

Odatda, biznesni to'g'ri tashkil etish uning asosli loyihalashtirish uzoq muddatli faoliyatni ta'minlovchi manbaadir. YA'ni, faoliyati to'xtatilgan kichik biznes sub'ektlarining asosiy sabablari o'rganilganda, aylanma mablag'lar yetishmasligi, dastlabki mablag' mavjud emasligi kabi muammolar aniqlangan.

#### 4-jadval

#### **Andijon viloyatida kichik biznesning ish bilan bandlikdagi ulushiga infratuzilma ob'ektlari ta'sirining ekonometrik bog'liqlik koeffitsiyentlari va tekshiruv (test) natijalari**

Ko'rsatkichlar		1-model	2-model
KBga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlarining umumiy soni	infra_umum	<b>0.085042 (0.0005)</b>	
KBga loyiha xizmati ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlari soni	infra_loyiha		<b>0.029285 (0.0008)</b>
Konstanta	S	<b>1.578807</b>	<b>1.866999</b>
$R^2$ (R-squared)		0.757508	0.727234
To'g'rilangan $R^2$ (Adjusted R-squared)		0.730564	0.696927
F-statistika (F-statistic)		28.11456	23.99532
Ehtimollik qiymati (Prob(F-statistic))		0.000492	0.000849
Darbin-Uotson statistikasi (Durbin-Watsonstat)		2.451654	1.846956

Izoh: Muallif tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan (Excel va Eviews kompyuter dasturlari asosida tuzilgan).

Kichik biznesning YAHMDagi, ish bilan bandlikdagi ulushi milliy iqtisodiy tizimdag'i barqarorlikni yohud ichki barqarorlikni ifodalaydi. Tashqi barqarorlik darajasi esa uning eksport salohiyati bilan belgilanadi. Kichik biznesning eksport salohiyati kengayishi natijasida ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar hajmi ortadi. Xalqaro talabga muvofiq

ishlab chiqarishni tashkil etish albatta texnologiyalar o‘zgarishi bilan uzviylikda amalga oshiriladi. Natijada foydalanilayotgan resurslar qaytimi o‘sadi. Oxir oqibat samaradorlik o‘sib, umumiy holda sohaning raqobatbardoshligi ortadi. SHu bois, eksportning infratuzilma ob’ektlari bilan bog‘liqligini aniqladik.

Kichik biznesning eksport salohiyatiga infratuzilma ob’ektlari ta’sirini tadqiq qilganimizda yuridik xizmat ko‘rsatuvchi turi eng yuqori regressiya koeffitsiyentini ifodaladi (5-jadval).

YA’ni, kichik biznes faoliyatini yurituvchi sub’ektlarning huquqiy bilimini o‘sishi, bojxona hujjatlarini to‘g‘ri yuritish o‘zining ijobiyligi ta’sirini ko‘rsatmoqda. SHuningdek, ushbu infratuzilma ob’ektining eksport darajasiga yuqori ta’siri amalga oshirilayotgan shartnomalar bilan ham asoslanadi.

### 5-jadval

#### **Andijon viloyatida kichik biznesning eksportdagi ulushiga infratuzilma ob’ektlari ta’sirining ekonometrik bog‘liqlik koeffitsiyentlari va tekshiruv (test) natijalari**

Ko‘rsatkichlar		1-model
KBga yuridik xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma ob’ektlari soni	infra_yuridikmaslah	<b>4.271840 (0.0105)</b>
KBda yaratilgan sanoat mahsulotlarining jami sanoatdagi ulushi	san	<b>0.633474 (0.1173)</b>
Konstanta	S	<b>-7.664588</b>
$R^2$ (R-squared)		0.902390
To‘g‘rilangan $R^2$ (Adjusted R-squared)		0.877987
F-statistika (F-statistic)		36.97926
Ehtimollik qiymati (Prob(F-statistic))		0.000091
Darbin-Uotson statistikasi (Durbin-Watsonstat)		1.879306

Izoh: Muallif tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan (Excel va Eviews kompyuter dasturlari asosida tuzilgan).

SHuningdek, eksport salohiyatini oshishiga ijobiyligi ta’sir etuvchi soha sanoatdir. Jumladan, kichik biznesning sanoatdagi ulushini o‘zgarishi ushbu yo‘nalishda eksportdagi kichik biznesning ulushini ham o‘zgarishini ta’minlamoqda. Bu esa, sanoatning infratuzilma bilan bog‘liqligini baholashni talab etadi.

Kichik biznesning sanoatdagi ulushini infratuzilma ob’ektlari bilan ta’sirchanligini baholaganimizda uning umumiy sonidagi o‘zgarish yuqori regressiya koeffitsiyentlariga ega bo‘lgan. SHuningdek, logistika xizmati ham sanoat rivojiga, undagi kichik biznes ulushi o‘zgarishiga ijobiyligi ta’sir qilmoqda (6-jadval).

**6-jadval**

**Andijon viloyatida kichik biznesning sanoatdagi ulushiga infratuzilma ob'ektlari ta'sirining ekonometrik bog'liqlik koeffitsiyentlari va tekshiruv (test) natijalari**

Ko'rsatkichlar		1-model	2-model
KBga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlarining umumiy soni	infra_umum	<b>2.574434 (0.0081)</b>	
KBga logistika xizmati ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlari soni	infra_logist		<b>0.503481 (0.1217)</b>
KBning jami eksportdagi ulushi	eksp		<b>0.298507 (0.0870)</b>
Konstanta	S	<b>-9.135338</b>	<b>-0.359092</b>
$R^2$ (R-squared)		0.560049	0.810992
To'g'rilangan $R^2$ (Adjusted R-squared)		0.511166	0.763740
F-statistika (F-statistic)		11.45884	17.16316
Ehtimollik qiymati (Prob(F-statistic))		0.008065	0.001278
Darbin-Uotson statistikasi (Durbin-Watsonstat)		1.510856	1.496278

Izoh: Muallif tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan (Excel va Eviews kompyuter dasturlari asosida tuzilgan).

YUqorida amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijasida viloyatda kichik biznesning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar: infratuzilmaning umumiy soni; yuridik xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma soni; logistika xizmati ko'rsatuvchi infratuzilma soni; loyiha xizmati ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlari soni. Demak, joriy vaqtida kichik biznes faoliyatini tashkil etish va yuritishda malaka talab qiluvchi sohalarning ta'siri kuchli ekanligi aniqlandi. Bu esa, kichik biznesning barqarorligini ta'minlashda tadbirkorlarning malaka ko'nikmasiga alohida e'tibor berishni talab qiladi.

Andijon viloyatida aholi daromadlari o'sishiga bugungi kunda yengil sanoat va qurilish sohasi kuchli ta'sir etmoqda. Jumladan kichik biznesda ish bilan bandlarning asosiy ulushi ushbu tarmoqlar hissasiga to'g'ri keladi. SHuningdek, ularda yangi ish o'rinarini yaratish investitsiyalar bilan bog'liq. YA'ni ushbu sohalarda ish bilan bandlarning o'rtacha ish haqi ham (kichik biznes soha va tarmoqlari korxonalari bo'yicha) yuqori ko'rsatkichlarga ega. Demak, ularning ish bilan bandligini oshirish, aholi daromadlarini ko'tarish uchun sanoatni, xususan viloyat xususiyatidan kelib chiqib yengil sanoat va qurilish industriyasini rivojlantirish zarur. Kichik biznesdagi sanoatning ulushiga infratuzilma soni va turlarini yuqori ta'sirini (infratuzilmaning umumiy sonini 1 foizga o'sishi sanoatni kichik biznesdagi ulushini 2,57 foizga oshirmoqda) hisobga olib diversifikasiya qilish zarur.

YUqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkunki, kichik biznes sub'ektlarining faol rivojlanishi infratuzilmalarning miqdoriga va raqobatiga bog'liq, o'z navbatida biznes muhitini ham shunga qarab qulay va ishchan bo'lib boradi.

SHu bilan birga bugungi kunda infratuzilma ob'ektlari ko'payib borayotgan bo'lsada, ularning miqdorini aniqlaydigan monitoring ishga tushirilmagan. Qolaversa, tadbirkorlar uchun infratuzilma ob'ektlarining faoliyatini sifatli èki raqobatli deb aytolmaymiz. Kichik biznes sub'ektlari infratuzilma muassasalarining turli bo'g'inlaridan foydalana olishida har turdag'i iqtisodiy va ma'muriy to'siqlarga uchrash holatlari mavjud. Bugungi kunda biznes infratuzilmalari faoliyatini yaxshilash va uni rivojlantirishdagi asosiy maqsad kichik biznes sub'ektlari uchun sièsiy, iqtisodiy va ijtimoiy jaraènlarni samarali tashkillashtirishdir.

Biznes muhitini nafaqat hukumat, balki mahalliy boshqaruv idoralari yordamida ham yaxshilash mumkin. Buning uchun hududiy-mahalliy sharoitlarni o'rganish maqsadida viloyat hokimligi tomonidan quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi:

- mahalliy iqtisodiyotning yillik hisobotlarida kichik biznesning rivojlanganligi darajasini tahlil etish;
- mahalliy ko'lamda kapital bozorining ishlashini ta'minlash va unga kerak bo'lgan tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- mahalliy miqyosda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari bilan infratuzilmalar o'tasida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini ko'rib borish;
- Savdo-sanoat palatasi tomonidan tayyorlanadigan hisobotlarda infratuzilmalar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish va tahlil etish.

Umumiyligi holda infratuzilma ob'ektlarining soni va xizmat sifatini o'sishi kichik biznesning barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi. Jumladan, sohaga yo'naltirilgan kreditlar va investitsiyalar hajmini o'sishi, ular asosida kapital bilan ta'minlanganlik ortishi, mehnat unumdoorligi, kapital intensivlik kabi samaradorlik ko'rsatkichlari ijobiylashuvi ta'minlanadi. Natijada kichik biznesning faoliyati kengayib, iqtisodiyotdagi ko'لامи ortadi xamda viloyatning makroiqtisodiy barqarorligiga erishiladi.

## Адабиётлар

1. "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси". Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармонига 1-ИЛОВА.
2. Ш.М.Мирзиёев "Худудларда тадбиркорликни ривожлантириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш" 2021 йил 8 апрель кунги видеоселлектор йиғилишидаги нутқи.
3. Д.Р. Махмудова "Кичик бизнес бошқарувида инфратузилма фаолиятини кенгайтириш йўналишлари" SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. <https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-biznes-bosharuvida-infratuzilma-faoliyatini-kengaytirish-y-nalishlari/viewer>
4. Е.А. Ляманова, К.В.Колпакова, Е.В. Гусарова "Факторы и условия обеспечения конкурентоспособности малого бизнеса в республике Мордовия" // <http://vectoreconomy.ru/images/publications/2016/6/Economicsmanagement/>

5. Т.С. Карпова. “Факторы развития малого бизнеса социальной сферы”. **Економіка і організація управління**: науковий журнал. – Донецьк: ДонНУ, 2013. –№ 1(15) –2 (16) . – с. 191.
6. Д.Р.Хайруллина. “Факторы, определяющие развитие малого бизнеса”. «Экономика и бизнес». 2017 й, №9. 103-стр.
7. А.А. Халилдинов. “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ташкилий иқтисодий механизмини такомиллаштириш” Journal of new century innovations 21 (2), 87-96
8. Р.Р.Версоцкий. Зарубежный опыт поддержки малого и среднего предпринимательства и возможности его применения в современной России. Управленческоеконсультирование . № 7 . 2019. 109-бет.
9. De la Fuente, Angel. Convergence across countries and regions:theory and empirics. UFAE and IAE Working Papers. November, 2002.
10. M.E.Juraxanov “Analysis of Sustainable Development of Small Business and Ways to Increase Them”. Texas Journal of Multidisciplinary Studies 22-11-2022 №5 (14) ISSN (Online): [2770-0003](https://doi.org/10.11.2022.5.14.2770-0003)
11. М.Э. Жураханов. “Анализ эффективности деятельности субъектов малого бизнеса в Андижанской области”. «Collquium-journal» #31 (154) 10.11.2022. ISSN 2520-6990
12. Андижон вилояти статистика бошқармаси статистик маълумотлари.